

## YANGI O'ZBEKISTONDA BANDLIGI TA'MINLANMAGAN YOSHLAR TO'GRISIDA AYRIM MULOHAZALAR

*Mamajonova Oygul Omonjon qizi*

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi*

*3-bosqich 308-guruh kursanti*

*Narziyev Shahzodbek Zoyirovich*

*IIV Akademiyasi o'qituvchisi*

**Kalit so'zlar:** bandligi ta'minlanmagan yoshlar, yoshlar, huquqbuzarlik, ishsizlik, bandlik organlari va hamkorlik

**Annotatsiya** :Maqolada yoshlar, bandligi ta'minlanmagan yoshlar, huquqbuzarliklar profilaktikasi tushunchalari izohlangan. Shuningdek, bandligi ta'minlanmagan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita yoritilgan.

**Annotation:** The article explains the concepts of youth and unorganized youth. Also, the reforms implemented on the implementation of crime prevention among unorganized youth are directly covered.

Bugun mamalakatimizda bandligi ta'minlanmagan yoshlar xavfsizligini ta'minlash, ularni ish bilan ta'minlash masalalari, bandligi ta'minlanmagan yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar hamda ularni oldini olish chora-tadbirlariga e'tibor qaratilmoqda. Konstitutsiyamizda har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash huquqlarining mustahkamlanishi, bu boradagi munosabatlarni tartibga solishning fundamental negizi mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, bu borada yigirmadan ortiq muhim qonunlar hamda yuzlab qonunosti normativ hujjatlar hayotga tatbiq etildi, qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilikka erishganidan so'ng yoshlarga har bir sohada keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish har bir demokratik, huquqiy davlatlarning bosh maqsadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ham asosiy maqsadi yoshlarning huquqlarini ta'minlash, ularning yashash darajasi va sifatini oshirish, ta'lim olish, mehnat qilish va boshqa huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun sharoit yaratishdan iboratdir. Chunki yoshlar-kelajak bunyodkoridir.

Bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, yoshlar o'rtasida xalqimizga yot g'oyalarning tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi ichki ishlar va boshqa tegishli davlat organlari oldiga o'z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo'yicha yangi vazifalarni qo'ymoqda. Shu bois bandligi

ta'minlanmagan yoshlar tomonidan sodir etilgan g'ayriqonuniy qilmishlarning oqibatlariga qarshi kurashish emas, balki mazkur holatlarning barvaqt oldini olish va profilaktikasini ta'minlash siyosatimizning ustuvor yo'nalishi va davlat organlarining birinchi darajali vazifasiga aylandi. Bu borada yoshlar o'rtasida sog'lom turmush-tarzini targ'ib etish, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish, yoshlar ongida vatanparvarlik, mehr-oqibat, el-yurt sha'nini ardoqlash kabi ulug'vor fazilatlarni kamol toptirishda «oila– mahalla– maktab» hamkorligini yo'lga qo'yish, masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. bandligi ta'minlanmagan yoshlar mamlakatimiz yoshlarining muayyan salmog'ini tashkil etuvchi, o'zining huquqbuzarliklarni sodir etishga moyilligi, turli yot va zararli g'oyalarga beriluvchanligi bilan ijtimoiy himoya va jamoatchilik nazoratiga muhtoj toifasi bo'lib, ular bilan doimiy va tizimli ravishda profilaktik chora- tadbirlarni amalga oshirish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoyalash, bu borada keng jamoatchilikning hamkorligiga tayanish, qolaversa, sohaga doir qonunchilikni zamon talablariga muvofiq tarzda takomillashtirish asosida bu toifa yoshlarning sonini kamaytirish, ular tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga erishish mumkin. O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashning xalqaro prinsiplaridan kelib chiqqan holda "Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyiliga asoslangan demokratik islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Bu borada davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

So'nggi yillarda yurtimizda yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Shuningdek, yoshlar bandligini ta'minlash faoliyati sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarining buzilishi profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish holati uchun davlat organlari, bandlik subyektlari rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy ma'suliyatini kuchaytirish maqsadida 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining bir qator qonunlari qabul qilindi.

Biroq, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularning bandligi sohasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq maqsadga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi kutilayotgan natijalarni bermayapti. Jamiyatda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik salmog'i keskin oshmoqda.

Bugungi kunga qadar umumiy va funksional yondashuv nuqtai-nazardan «yoshlar» tushunchasining jamiyatning umumiy tizimiga mos keladigan yagona ilmiy ta’rifi yo‘q, uning hatto falsafiy mazmun-mohiyati ham yetarli darajada ochib berilmagan. . Yoshlar orasida hozirda paydo bo‘lgan « bandligi ta’minlanmagan yoshlar » ijtimoiy qatlami tushunchasining aniq bir ta’rifi yo‘q. Turli fan vakillari o‘zlarining tadqiqot yo‘nalishidan kelib chiqib bu tushunchaga ta’rif bermoqdalar. bandligi ta’minlanmagan yoshlar deb - o‘z xatti-harakati bilan davlatga, jamiyatga, oilasiga, shaxslararo va o‘zaro munosabatlarda yetarli darajada foydalilik koeffitsientini bermaydigan, umuman hayotga bee’tibor, befarq yoshlarga nisbatan aytiladi. « bandligi ta’minlanmagan yoshlar» – o‘z maqsadini individual tarzda, davlat va jamiyatda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanmasdan, primitiv, nafaol tarzda samarasiz amalga oshirayotgan, hech qaerda o‘qimaydigan, ishlamaydigan yoshlar guruhini anglatadi. Bugungi kunda bandligi ta’minlanmagan yoshlarni internet tarmog‘i orqali amalga oshirilayotgan «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi tajovuzlardan himoya qilish har qachongidan dolzarblashgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarni har taraflama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni takomillashtirish borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi tashkil etilib, uning yoshlar va voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasida o‘ziga xos o‘rni shakllandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi PQ 92-sonli “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Unga ko‘ra, yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida: Har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada “yoshlar yetakchisi” lavozimi joriy etildi. Yoshlar o‘rtasida nazoratsizlikni oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish borasidagi xorijiy davlatlar to‘plagan tajribani o‘rganish asosida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning ta’sirchan tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, yoshlar bilan olib boriladigan profilaktik ishlarni muvofiqlashtirish, ularni uyushtirishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish muammolarining ilmiy yechimlarini topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan rivojlangan davlatlar amaliyotini o‘rganish hamda uning natijalarini milliy tizimga tatbiq etish tadqiqot ishidan ko‘zlangan birlamchi vazifa hisoblanadi. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qarorlariga asosan yoshlar daftari amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, Yoshlar daftari bu har bir sektor xududi kesimida istiqomat qilayotgan, 18 yoshga

to'lgan 30 yoshdan oshmagan ishsiz yoshlarning manzilli ro'yxati qayd etiladigan elektron dastur hisoblanib, yoshlar daftar sektor kotibi va yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi boshlig'i tomonidan yuritiladi. Ushbu

daftarga yoshi, jinsi, kasbga layoqati bo'yicha: bitiruvchi yoshlar, xozirda ishsiz bo'lgan yoshlar, ishga muxtoj nogiron yoshlar, xorijdan qaytgan yoshlar, JIEMdan ozod etilgan yoshlar, xarbiy-xizmatdan qaytgan yoshlar kiritiladi. Uyushmagan yoshlar mamlakatimiz yoshlarining muayyan salmog'ini tashkil etuvchi, o'zining huquqbuzarliklarni sodir etishga moyilligi, turli yot va zararli g'oyalarga beriluvchanligi bilan ijtimoiy himoya va jamoatchilik nazoratiga muhtoj toifasi bo'lib, ular bilan doimiy va tizimli ravishda profilaktik chora- tadbirlarni amalga oshirish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoyalash, bu borada keng jamoatchilikning hamkorligiga tayanish, qolaversa, sohaga doir qonunchilikni zamon talablariga muvofiq tarzda takomillashtirish asosida bu toifa yoshlarning sonini kamaytirish, ular tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Kontitutsiyasi;
2. Sh.M.Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" // Xalq so'zi. – 2016. – 7 dekabr.
3. Sh.M.Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" — T.: "O'zbekiston", 2017. — 104 b.
4. Sh.M. Mirziyoyev. Konstitutsiya erkin va farovon xalqimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevordir. – Toshkent. «O'zbekiston» NMIU, 2018. – 64 b.
5. .Murodov A. bandligi ta'minlanmagan yoshlar tushunchasi va uning kriminologik tavsifi. <https://api.moiti.uz/media/book>
6. Ismoilov T.I. O'zbekistonda bandligi ta'minlanmagan yoshlarning ijtimoiy faolligi [monografiya]. –T., 2021